

EMIL DYURKGEYMNING “DEVIANT XULQ-ATVOR” NAZARARIYASI

Savriyeva Dilorom Sirojiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: savriyevadilorom2@gmail.com

Ilxomov.U.U

Ilmiy rahbar, O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14608492>

Annotatsiya. Mazkur maqola Emil Dyurkgeymning deviant xulq-atvor nazariyasini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarining sabablari, shakllari va funksiyalarini tahlil qiladi. Dyurkgeym deviantlikni ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida tushuntirib, uning jamiyatdagi me'yorlarni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni ta'minlash va ijtimoiy o'zgarishlarga turtki berish kabi muhim funksiyalarini ko'rsatadi. Maqolada anomiya tushunchasi alohida tahlil qilinib, ijtimoiy me'yorlar zaiflashgan paytda deviant xulq-atvor kuchayishi tushuntirilgan. Dyurkgeym nazariyasining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati ham yoritilgan bo'lib, bu yondashuv ijtimoiy nazorat va deviantlikning oldini olish choralari shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Emil Dyurkgeym, deviant xulq-atvor, anomiya, ijtimoiy me'yorlar, jinoyatchilik, ijtimoiy o'zgarishlar, sotsiologik nazariya.

ТЕОРИЯ «ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ» ЭМИЛЯ ДЮРКГЕЙМА

Аннотация. Данная статья посвящена теории девиантного поведения Эмиля Дюркгейма, в которой рассматриваются причины, формы и функции отклонений от социальных норм в обществе. Дюркгейм объясняет девиантное поведение как неотъемлемую часть социальной жизни, подчеркивая его важные функции, такие как укрепление норм, обеспечение социальной солидарности и стимулирование социальных изменений. Особое внимание уделено понятию аномии, которое возникает при ослаблении социальных норм и ведет к росту девиантного поведения. Также проанализирована актуальность теории Дюркгейма в современном обществе, где данный подход играет важную роль в формировании мер по социальному контролю и профилактике девиантного поведения.

Ключевые слова: Эмиль Дюркгейм, девиантное поведение, аномия, социальные нормы, преступность, социальные изменения, социологическая теория.

“DEVIANT BEHAVIOR” THEORY OF EMILE DURKHEIM

Abstract. This article is dedicated to Emil Durkheim's theory of deviant behavior, which examines the causes, forms, and functions of deviations from social norms in society. Durkheim explains deviant behavior as an integral part of social life, highlighting its important functions such as strengthening norms, ensuring social solidarity, and stimulating social change. Special attention is paid to the concept of anomie, which arises when social norms weaken and leads to an increase in deviant behavior. The relevance of Durkheim's theory in modern society is also analyzed, emphasizing its significant role in shaping measures for social control and preventing deviant behavior.

Keywords: Emil Durkheim, deviant behavior, anomie, social norms, crime, social change, sociological theory.

Kirish. Deviant xulq-atvor – bu jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqishdir. Emil Dyurkgeym, sotsiologiya fanining asoschilaridan biri sifatida, bu mavzuni chuqur o'rgangan va ijtimoiy anomiya tushunchasini ilgari surgan. U deviant xulq-atvorni ijtimoiy hayotning tabiiy va ajralmas qismi sifatida ko'rsatgan.

1. Deviant xulq-atvorning jamiyatdagi o'rni

Dyurkgeymning fikriga ko'ra, deviant xulq-atvor jamiyat uchun normal holatdir, chunki har qanday jamiyatda me'yorlar buzilishi tabiiy jarayon. U deviant xulq-atvorning jamiyat uchun quyidagi ijtimoiy funksiyalarini ko'rsatib o'tgan:

- Me'yor va qadriyatlarni mustahkamlash: Deviant xulq-atvor orqali jamiyat nimaning to'g'ri va nimaning noto'g'ri ekanini aniqlaydi va mustahkamlaydi. Masalan, jinoyatlar sodir etilganda qonunlarning ahamiyati yana bir bor tasdiqlanadi.
- Jamiyatni birlashtirish: Me'yornlarni buzgan shaxslar jamiyat a'zolarini birlashtiradi va umumiy qadriyatlar atrofida birlashishga undaydi.
- Ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqarish: Ba'zi deviant xulq-atvorlar ijtimoiy taraqqiyot va o'zgarishlarga turtki beradi. Masalan, tarixda ba'zi normaga zid harakatlar keyinchalik yangi ijtimoiy qadriyatlar va qonunlarga asos bo'lgan.

2. Anomiya tushunchasi

Dyurkgeymning anomiya tushunchasi deviant xulq-atvorning asosiy tushuntirishlaridan biridir.

- Anomiya – bu jamiyatdagi me'yorlar va qadriyatlarning zaiflashuvi yoki tushunarsiz bo'lib qolishi holati.

- Anomiya odatda ijtimoiy o'zgarishlar davrida yuzaga keladi: iqtisodiy inqirozlar, urushlar, inqiloblar va sanoat rivojlanishi kabi jarayonlar.
- Me'yorlarning yo'qligi odamlarni qaysi xulq-atvor to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini anglay olmaydigan holatga olib keladi va bu deviant xulq-atvorning kuchayishiga sabab bo'ladi[2].

3. Deviantlik va jinoyatchilik

Dyurkgeym jinoyatchilikni ham ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb hisoblaydi. U quyidagilarni ta'kidlaydi:

- Jinoyatchilik butunlay yo'qolishi mumkin emas, chunki har qanday jamiyatda me'yorlarni buzadigan harakatlar bo'ladi.
- Jinoyatchilikning mavjudligi jamiyatdagi me'yorlarning doimiy ravishda yangilanib borishini ta'minlaydi.

4. Dyurkgeym nazariyasining amaliy ahamiyati

Dyurkgeymning deviant xulq-atvor haqidagi qarashlari sotsiologiya va psixologiya fanlarida katta ahamiyatga ega. Uning nazariyasi bugungi kunda:

- Ijtimoiy nazorat va huquq-tartibot tizimlarini shakllantirish,
- Yoshlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olish,
- Ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish kabi sohalarda qo'llaniladi.[2]

Deviant xulq-atvor tashxisi bola 8-10 yoshdan oshgandan keyin qo'yiladi. Mutaxassislar fikricha, ushbu patologiyaning dastlabki alomatlari 5-6 yoshdan boshlab ko'zga tashlanadi. Deviant xulqatvor o'smirlik davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu muammo klinik psixologlar, psixiatrlar va, ayniqsa sotsial psixologlar uchun tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Shunday bo'lsada, bunday yoshlar ushbu mutaxassislarga emas, o'zlarining antisotsial xatti-harakatlari bilan huquqni muhofaza qilish organlari qo'liga tushib qolishadi. Deviant xulq-atvorning negativ va pozitiv turlari farqlanadi. Negativ deviasiyaga ahloqsiz ishlarga qo'l urish, o'ziga va boshqalarga qasddan tan jarohati yetkazish, tajovuzkorlik, o'g'rilik, giyohvandlik, pornoqaramlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, o'zgalar mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi salbiy xatti-harakatlar kiradi. Keyinchalik "xalqlar dohiysi" darajasiga yetgan Gitler, Stalin, Mussolini va Saddam Xusayin kabi shaxslarda deviant xulq-atvorning negativ turi bo'lgan. Pozitiv deviasiyaga yoshlik davrida umumqabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga sig'maydigan aql-bovar qilmas g'oyalar va ixtirolarga qo'l uradigan shaxslarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, buyuk fiziklar, kimyogarlar, fazogirlar, ulamolar, shoirlar, musavvirlar, tabiblar va faylasuflarning o'smirlik davriga nazar solinsa, ularda deviant xulq-atvorning pozitiv turini kuzatamiz. Bunday shaxslar o'z yoshiga va o'zi yashayotgan

davrga mos bo'lmagan qobiliyatlari bilan kattalarni hayratga solishgan. Deviant xulq-atvorning negativ turini mutaxassislar mukammal o'rganishi lozim. Agar ularni erta korreksiya qilmasa, kelajada Gitler, Stalin va Mussolini kabi psixopat rahbarlar davlat tepasiga kelib millionlagan xalqlar boshiga musibatlar yog'dirishi mumkin. Negativ deviatsiyaga ega o'smirlar xulq-atvorini erta psixokorreksiya qilib jamiyatni bunday shaxslardan himoya qilish har bir pedagog va psixologning ishi! Oiladagi nosog'lom muhit: ota-ona orasidagi janjallar, farzandlarni otasiz yoki onasiz boqish, bolaga bemehr bo'lish, ota yoki onaning uzoq muddat muxojirotda bo'lishi, o'gay ota yoki o'gay ona qo'lida tarbiya ko'rish, farzandlarga bir xil munosabatda bo'lmaslik, ya'ni birini yaxshi ko'rish, boshqasini kamsitish, ularni o'z holiga tashlab qo'yish va nazorat qilmaslik, myehnatga o'rgatmaslik, ilmga qiziqtirmaslik.

Oiladagi nosog'lom muhit Qashshoqlik .

- Oiladagi qashshoqlik, ya'ni o'z farzandlarini vitaminlarga boy oziq-ovqatlar bilan ta'minlay olmaslik, kiyim-kechak olib bera olmaslik, bolalar dam olish maskanlari va sport to'garaklari yubora olmaslik, teatr, kino va hiyobonlarga olib bora olmaslik, zarur kitob-daftarlar bilan ta'minlay olmaslik, dunyoviy va diniy ilmlarni o'zlashtirishga imkonsizlik. Demak, yaxshi ota-ona bo'lsa-da, o'sib ulg'ayib kyelayotgan bolani ta'minlashga va tarbiyalashga imkoni bo'lmasa, bunday farzandlarda xulq-atvorning negativ deviatsiyasi rivojlanishi mumkin. Oiladagi qashshoqlik, Ota-onaning ahloqsiz bo'lishi, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi, ruhiy kasalliklar bilan og'riganligi, kattalar tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar bolalar ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Psixogenetik omillar:

Deviant xulq-atvorning shakllanishida ba'zan genetic omillar ham ahamiyatli ekanligi ilmiy-tadqiqot ishlarida O'z isbotini topgan. Masalan, psixopatizatsiya yoki schizoid tipga ega otalarning farzandlari va qarindoshlari orasida deviant xulq-atvorga ega bolalar yetishib chiqadi. Mutaxassislar bu yerda genetic omillarga asosiy urg'uni beradi.

Bu mavzu hammani qiziqtirib qO'ydi.

Emil Dyurkgeym ta'limoti keyinchalik sotsiologlar tomonidan O'rganila boshlandi. Ayniqsa, bu yo'nalish sotsiolog olimlar L. Klages (1872-1956), Klayv S. Luis (1898-1963), Robert Merton (1910-2003), Nil Smelzer (1930-2017) tomonidan deviantologiya bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ular turli ijtimoiy guruhlarda tashqi omillarning xulq-atvor deviatsiyasiga salbiy ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishdi, ilmiy asarlar yozishdi.

Kelajak bugundan boshlanadi.

Bugungi kunda yoshlar ongiga bo'layotgan internet hujumlar, jamiyatdagi parchalanishlar, ijtimoiy tarmoqlarda ahloqsizlik, gomoseksualizm, pornoindustriya rivojlanib borishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir xonadonga kirib kelishi, ijtimoiy tabaqalanish, ommaviy migratsiyalar, davlatlararo urushlar deviantologiya oldiga yangi va yangi vazifalarni qO'ymoqda va yangi tadqiqotlar olib boorish zarurligini taqozo qilmoqda.

Deviant xulq-atvor belgilari.

- Umumqabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga va rasmiy qonun-qoidalarga zid xatti-harakatlar qilish, O'ziga va atrofdagilar mol-mulkiga ziyon yetkazish va bu holatning doimiy ravishda rO'y berib turishi, insonlarni haqorat qilish va doimo urush-janjallar markazida bO'lishi, yonida sovuq qurollar olib yurishga moyillik.
- Ruhiy kasalliklar (shizofreniya va hu kabilar) va ruhiyat buzilishi bilan namoyon bO'luvchi bosh miya kasalliklari bilan og'rimagan bO'lishi, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarga ruju qO'ygan bO'lishi, gomoseksualizm, pornoqaramlik, ahloqsiz xatti-harakatlarga moyillik.
- Ota-onasi, aka-ukalari, pedagoglar va boshqalarga agressiv munosabatda bO'lish, doimo norozi bO'lib yurish, minnatdorchilik hissining yO'qligi, mehnatdan qochish, yolg'on sO'zlash. Maslahatlar bergan ota-onasi yoki ustozini yomon kO'radi, biroq O'zi aql O'rgatishni xush kO'radi.
- Hissiy reaksiyalarning noturg'unligitez-tez affect holatlarga tushib turish, kayfiyatning bir yomon bir yaxshi bO'lib turishi (disforiya), tO'g'ri maslahat bergan yoki tanqid qilgan odamni yomon kO'rib qolishi, kayfiyati buzilib jazavaga tushishi.
- **Hufiyona hayotga moyillik.** Bunday O'smirlar yolg'izlikni yaxshi kO'rishmaydi, xonasiga qamalib olib internetga qaram bO'lib qolishadi, pornofilmlarga moyilligi kuchli bO'ladi, kO'p dars qoldiradi, kO'chaga chiqib bolalar bilan O'ynamaydi, janjalkash odati tufayli dO'stlari bilan chiqishmaydi, nari borsa 1-2 ta bola bilan dO'st tutishadi xolos. U ham O'ziga O'xshagan bO'ladi.
- **Deviant xulq-atvor psixoterapiyasi.** Deviant xulq-atvor psixoterapiyasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Asosan bixevioral psixoterapiya, psixodinamik terapiya va gipnoterapiya qO'llaniladi. Shuningdek, artterapiya, biblioterapiya, mehnat terapiyasi, sport terapiyasi qO'llaniladi. Albatta klinik psixolog bunday o'smirlarning ota-onalari bilan ham ishlashlari zarur. Uzoq davom etuvchi psixoreabilitatsiya klinik psixolog shug'ullansa, ijtimoiy hayotga adaptatsiyasi bilan sotsial psixologlar shug'ullanishadi.

- Bugungi kunda ma'lumki, smartfon, planshet va noutbuklar yosh bolalardagi fikrlash faoliyatining fiziologik va biologik qonunlarga mos ravishda riojlanishini izdan chiqarib yubormoqda. Odam biologik muhitdan uzoqlashib, androidlar dunyosiga g'arq bo'lmoqda, u ko'proq robotlar dunyosiga qaram bo'lib bormoqda. Bunday taraqqiyotning salbiy ta'sirlari bolada hozirdan ko'zga tashlanmoqda, ularda reaktiv nevroz, depressiya, apatiya, fobiya va hatto fikrlash torayishi kabi patologik holatlar kuzatilmoqda. Katta yoshdagilarda uchraydigan psixosomatik buzilishlar bolalar va o'smirlarda ham ko'payib bormoqda.

Deviant xulq-atvor profilaktikasi. Deviant xulq-atvor profilaktikasi oiladan, ya'ni ota-onalar tarbiyasidan boshlanadi. Turmush qurayotgan yoshlar tibbiy, genetik va psixologik tekshiruvlardan o'tishlari lozim. Bolalarda deviant xulq-atvor shakllanib bormasligi uchun yosh ota-onalar tarbiyali bo'lishi, iqtisodiy ta'minlangan bo'lishi, bog'cha va maktabda bolalar diskriminatsiyaga uchramasligi, tibbiy-profilaktik tekshiruvlardan o'tib turishi, maktab psixologlari boladagi xulq-atvor buzilishlarini erta aniqlab ularni korreksiya qilish bilan tizimli shug'ullanib borishlari zarur. Davlat va jamiyat barkamol avlod tarbiyasi uchun barcha iqtisodiy resurslarni ishga solishi, jamiyatda adolat hukmron bo'lishi, bolalar haq-huquqlarini himoya qilib kelinishi zarur[3].

XULOSA.

Emil Dyurkgeym deviant xulq-atvorni ijtimoiy hayotning tabiiy va muhim qismi sifatida tushuntirgan. U anomiya tushunchasi orqali deviantlikning asosiy sabablarini ko'rsatgan va jamiyat taraqqiyotida uning O'rnini aniqlab bergan. Uning qarashlari hozirgi zamon sotsiologiyasi uchun ham katta ahamiyat kasb etgan. KO'plab olimlar va sotsiologlar Emil Dyurkgeymning Deviant xulq-atvor nazariyasini O'rganishmoqda, chunki hozirgi davrda yoshlar orasida xulqi va tarbiyasi buzilgan bolalarni ko'plab uchratmoqdamiz.

REFERENCES

1. Dyurkgeym.E. "The Division of Labor in Society"(1893)
2. Ilmiy maqolalar: "Anomiya va deviant xulq-atvor nazariyalari"
3. www.asab.uz <https://t.me/izrmed>
4. O'zbekiston Milliy Kutubxonasi ma'lumotlar.